

Date: 9th June-2026

“OLTIN BESHIK”NING TADQIQOTLARDA AKS ETISHI

J.J.Yakobjanov

Nizomiy nomidagi O‘zMPU

dotsenti, PhD



Qo‘qon xonligining tashkil topishi hamda uning asoschisi bo‘lgan Ming xonadoni vakillarining hokimiyatga kelishi masalasida Oltin Beshik “rivoyati” tadqiqotchilarni chalg‘ituvchi jarayonlardan biri sanaladi. Bunga bir qancha omillar sabab bo‘ladi. Xususan, ushbu rivoyatning nega aynan Umarxon davriga kelib adabiyotlarda paydo bo‘la boshlagani?, Nega Boburning o‘zi bu xususida hech qaysi asarida tilga olmagan? Kabi savollar tadqiqotchilarni bir to‘xtamga kelishiga to‘sqinlik qiladi. Lekin, boshqa manbalardan ma‘lumotlarning farqlanishi bilan ajralib turuvchi “Anjum at-tavorix”dagi bayon ushbu jarayon xususida boshqacharoq xulosa chiqarishga sabab bo‘ladi. Mana shu jihatlarni biz ushbu maqolada tahlil etib chiqamiz.

Xonlik tarixiga oid adabiyotlarda ming xonadonining hokimiyat tepasiga kelishining yoritilishi asnosida sulolaning tarixiga ham alohida urg‘u berib o‘tilgan. Bunda ko‘plab adabiyotlarda Oltin Beshik rivoyatiga murojaat qilinadi hamda keyinchalik ayrim mualliflar tomonidan bu rivoyatda keltirilgan voqealarga nisbatan munosabatlar bildirilgan. Qo‘qon xonligining siyosiy tarixi xususida so‘z borganda avvalo Oltin Beshik voqeasi xususida to‘xtalib o‘tish lozim. Qo‘qon xonligi xususida mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan manbalarning deyarli barchasi aynan shu voqea bilan boshlanadi. O‘rganilayotgan davr adabiyotlarida ham ushbu masalaga bir qancha tadqiqotchilar o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tishgan. Ayrim mualliflar¹ ushbu voqeani hokimiyatni legitimatsiya (qonuniylashtirish) uchun yaratilgan deyishadi. Jumladan, Qo‘qon xonligi tarixi sohasida yirik tadqiqotchilardan biri H.Bobobekov o‘zining “Qo‘qon tarixi” nomli kitobida bu borada fikrini bayon qilib, –“Qo‘qon xonligining hukmdorlari haqida gapirganda shuni ta’kidlash joizki, deyarli barcha musulmon tarixchilari va ayrim rus mualliflari xonlar dinastiyasini Oltin Beshik bilan, u orqali Bobur bilan bog‘lab, Odam payg‘ambargacha etkazadi... Bu erda shuni aytish lozimki, Boburning o‘zi Oltin Beshik haqida hech narsa demaydi, tarixchilar ham, Boburning zamondoshlari xam uni tilga olmaydilar. Shuning uchun bu rivoyatni og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan afsonaviy to‘qima voqea yoki Qo‘qon hukmron doiralarning o‘z shajaralarini u bilan bog‘lash va o‘z hokimiyatlarini barqaror kilish, mustahkamlash maqsadida o‘ylab topilgan rivoyat deb hisoblash mumkin”, - deya, N.P. Nalivkin, N.Pavlov, Isxoqxon To‘ra kabi tarixchilarning o‘z asarlarini yozishda Oltin beshik rivoyatidan foydalanganliklarini ko‘rsatib o‘tadi². Lekin H.Bobobekovning so‘nggi yillardagi tadqiqotlarida ushbu ilmiy xulosaning o‘zgarganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Masalan, muallifning 2022 yilda chop etilgan

¹ Qarang: Бобобеков Х. Қўқон тарихи.... – 21 б.; Воҳидов Ш. XIX – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши... – 122–б.

² Бобобеков Х. Қўқон тарихи ... –Б. 20–21.

Date: 9th June-2026



“Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi”³ nomli asarida “Anjum-at tavorix” asari asosida Oltin Beshik shajarasini qayta tadqiq etib, uning rivoyat emasligiga e‘tibor qaratadi. Unda shu paytgacha tadqiqotchilar tomonidan Oltin Beshikni Z.M.Boburning o‘g‘li deb ta’kidlanishi xatolik bo‘lganligi qayd etib o‘tiladi. Sababi Z.M.Bobur va Oltin Beshikning tu‘g‘ilish yillari va bir-biriga taqqoslanganda nomutanosiblik yuzaga kelganligi ta’kidlanadi. Aynan shunday bo‘shliqni to‘ldirish uchun “Anjum-at tavorix”da keltirilgan ma‘lumotlar⁴ orqali Qo‘qon xonlarini shajarasini Z.M.Boburga bog‘lash mumkin. Muallif fikrlarining so‘nggida ushbu fikrlarni tasdiqlovchi yana boshqa hujjatlar topilsa yaxshi bo‘lar edi degan xulosani beradi.

Ushbu masala borasida B.Babadjanov o‘z monografiyasida⁵ batafsil to‘xtaladi hamda har bir manbada ushbu masala doirasida keltirilgan ma‘lumotlarni tahlil etib, o‘zining bir qancha asosli fikrlarini bildirib o‘tadi. Muallif ushbu rivoyatga munosabat bildirishda, o‘sha davr davlat boshqaruvidagi mavjud ana‘analarga to‘xtalib o‘tib, mazkur voqeaning yuzaga kelish sabablarini bir necha taxminlarga bo‘lib o‘rganadi⁶.

Mazkur masala yuzasidan Sh.Vohidov ham o‘z fikrlarini bildirib, Qo‘qon xonlari o‘zlariga hokimiyat qonuniy tekkanligini isbotlash maqsadida ushbu rivoyatga ehtiyoj tug‘ilgan, deya xulosaga keladi⁷.

Oltin Beshik borasida ayrim adabiyotlarda⁸ ushbu rivoyatga monand ravishda Qo‘qon xonlari avlodini Zahiriddin Muhammad Boburga va u orqali Amir Temurga borib taqaladi, deyiladi.

Yana bir kitobda XVIII asrning avvalida Farg‘ona o‘lkasida hokimiyat tepasiga kelgan Ming xonadoni vakillari, xususan, uning asoschisi Shohruxbiyning Oltin Beshik bilan bog‘langanligiga ishora qilinadi⁹. Qolaversa, Qo‘qon xonlari nasabnomalarining Oltin Beshik rivoyati bilan bog‘liqligi Mullo Niyoz Muhammadning “Tarixi Shohruhiy”, Mushrifning “Ansob us-salotin tavorix ul-havoqin”, Muhammad Solih Toshkandiyning “Tarixi jadidi Toshkand”, Fozilbek Otabek o‘g‘lining “Mukammali tarixi Farg‘ona”, V.Nalivkinning XIX asr 80-yillari o‘rtalarida Qozonda chop etilgan “Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi” (“Краткая история Кокандского ханства”), Ibratning “Farg‘ona tarixi”, Mulla Shamsiddin Shavqiyning “Shohnoma” dostonida, Muhammad Aminbek Xudoyorxon o‘g‘lining “Turkiston viloyatining gazet”ning 1894 yil sonlarida o‘zbek va rus tillarida e‘lon qilingan “Farg‘ona viloyati xonlarining xususidagi voqeotlar” nomli asarlarida ham qayd etilganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Qo‘qon xonligi tarixining bibliografiyasiga bag‘ishlangan risolada mualliflar tomonidan V.Nalivkinning “Краткая история Кокандского ханства” nomli risolasiga asoslangan holda tuzib chiqilgan Minglar

³ Бобобеков Х. Қўқон хонлигининг қисқача тарихи. -Тошкент, 2022 . -260 б.

⁴ Qarag‘: Қўқон хонлигининг қисқача тарихи... -Б. 248-249

⁵ Бабаджанов Б. Кокандское ханство: власт, политика, религия.... -744 б.

⁶ O‘sha asar. -Б. 314-338

⁷ Ш.Вохидов. Қўқон хонлигида тарихнавислик... -Б. 11-12

⁸ Юсупов Ш. Хуфия қатламлар.... -15-6.

⁹ Ватан тарихи (ХВИ-XX аср бошлари); К.2.: (Муаллифлар: Р.Шамсутдинов, Ш.Каримов, С.Ҳошимов, У. Убайдуллаев; Масъул муҳаррирлар: Қ.Усмонов. – Тошкент: «Шарқ», 2016. –90 б.

Date: 9th June-2026

sulolasining shajarasi Amir Temur va Temuriylarga bog'langan holda ko'rsatib beriladi (Oltin Beshik rivoyati asosida –J.Ya.)¹⁰.

Qo'qon xonligining tashkil topishi va hokimiyat egalari sanalgan ming xonadonining Oltin Beshik rivoyati bilan bog'liq holda yoritib berish holati ayrim horij mualliflari asarlarida ham uchraydi. Masalan, tadqiqotchi Levi Skottning Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarida bu borada keltirilgan ma'lumotlarni asarning bir qancha joylarida ko'rish mumkin¹¹. Boshqa bir horijlik tarixchi Stenli Len-Pulning “Муcулманские династии” kitobida esa muallif tomonidan ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yiladi. Xususan, - “Shohruhxon o'zini Chingizxonning avlodi deb e'lon qilib, taxminan 1700 yillar atrofida Farg'ona mulkining hukmdoriga aylandi va Qo'qon xonligiga asos soldi”, - deb ko'rsatilgan va bunda sulolaning kelib chiqishi va hokimiyatning qo'lga kiritilishi borasidagi xatoliklarni payqash qiyin emas. Shuningdek, Shohruxbiy va Sulaymonlarning hukmronlik yillari orasidagi farqni 1700-1770 yillar oralig'ida ko'rsatib, bu oraliqdagi xonlarning hukmronlik yillari ko'rsatilmaydi¹². Bunday ma'lumotlarni **fransuz muallifi Kraussetning “Dasht imperiyasi. Markaziy Osiyo tarixi”¹³ asarida ham ko'rish mumkin. Tadqiqotda ko'rsatib o'tilishicha, Qo'qon xonligi tashkil etilishi masalasini Krausset – “Farg'ona Shayboniylar xukmdorligi davrida Movarounnahr xonligining bir qismi sifatida shakllandi, ammo keyinroq bu birlashish faqat nomigagina bo'lib qoldi... 1710 yillar atrofida Abulfayzning avlodidan bo'lgan Shohruh deb nomlangan shayboniy xo'jalar ustidan g'olib kelib Farg'onada poytaxti Qo'qon bo'lgan mustaqil o'zbek xonligini tashkil etishda muvaffaqiyatga erishdi**”, - deb ko'rsatganligini tadqiqotchi O.Masaliyeva o'z ilmiy ishida keltiradi¹⁴.

Ta'kidlash kerakki, Oltin Beshik voqeasi yaratilish davri Umarxon davriga borib taqaladi. Jumladan, xonlik tarixi haqida bayon qiluvchi Fazliy Farg'oniyning “Umarnoma” asarida bu rivoyat uchramaydi. Ushbu asarni nazmdan nasrga o'girib, yangi tahririni amalga oshirgan Mushrif - Mirzo Qalandar Isfaragiyning “Shohnomai nusratpayom” asarida esa mazkur rivoyat o'z aksini topgan (1822 yil)¹⁵. Aynan ushbu asardan so'ng boshqa tarixchilar ham mazkur rivoyatni o'z asarlarida keltira boshlaydilar.

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy – mazkur rivoyat nega aynan Umarxon davriga kelibgina manbalarga kiritildi?! Agarda ushbu rivoyat asl voqea bo'lganida nima uchun oldingi davrlarda yozib qoldirilmagan?! Yoki bo'lmasa nima uchun Z.M. Boburning o'zi “Boburnoma” va boshqa asarlarida bu haqida hech nasa demagan?! Umarxon diniy va

¹⁰ Игамбердиев А., Амирсaidов А. История Кокандского ханства. Библиографический указатель с иллюстрациями XVIII век – 1876 г. –Ташкент. 2007. –С. 11–13.

¹¹ Levi Scott C. The rise and fall of Khoqand, 1709–1876. Copyright c 2017, University of Pittsburgh Press. – Б. 20–26, – Б. 68–79, –124 б, – Б. 141–146

¹² Stenli Len-Pul. Мусулманские династии: Хронологические и генеологические таблицы с историческими введениями. –Москва: “Восточная литература” РАН, 2004. –203 с.

¹³ *The empire of the steppes. A history of Central Asia. By Rene Grousset. – Rutgers University press, 1970. – П.488.1 06*

¹⁴ Масалиева О. Бухоро, Хива ва Қўқон хонлиги тарихини XX аср Англия ва Америка тарихшунослигида ўрганилиши... –107–6.

¹⁵ Qarang: Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик... –11 б.



Date: 9th June-2026

dunyoviy hokimiyatni qo'lga kiritib, uni mustahkamlashga urinadi. Bizningcha, mana shunday maqsad yo'lida o'zini va o'zidan oldingi hukmdorlarni asl xonlar avlodidan ekanligini isbotlash uchun hamda diniy taraflama esa o'zini payg'ambar avlodidan¹⁶ ekanligini asoslashga harakat qiladi. Shu munosabat bilan, Umarxon buyrug'i asosida Oltin Beshik rivoyati o'ylab topiladi. Demak, yuqoridagi sabablarga ko'ra ushbu rivoyat bo'yicha Sh.Vohidov va B.Babadjanovlarning fikrlari ya'ni mazkur voqea hokimiyatni qonuniy asoslash hamda mustahkamlash maqsadida o'ylab topilgan degan fikrlari haqiqatga yaqinroq¹⁷. Shunga qaramay yuqorida ko'rib o'tganimiz H.Bobobekovning so'nggi tadqiqotlaridagi yangi ilmiy xulosalarning keltirilishi hali bu borada yangi tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi.

¹⁶ Бабаджанов Б. Кокандское ханство: власт, политика, религия... –313 с.

¹⁷ Oltin Beshik voqeasi xususida so'nggi ayrim tadqiqotlarda uning haqiqatga yaqinligi ham inkor etilmaydi (YouTube ijtimoiy tarmog'idagi "O'zbekchilik" nomli ko'rsatuvning 5 soniga qarang). Ushbu fikrlarni "Anjum at-tavorix" asarida keltirilgan ma'lumotlar bilan asoslashga harakat qilinadi. Lekin ushbu asarning o'zida ham qarama-qarshi fikrlar borligini ta'kidlash lozim. Unda dastlab Oltin Beshikni Z.M. Boburning o'g'li deb izohlaydi. Asarning davomida esa Oltin Beshikni Z.M. Boburning avlodi deya keltiradi. Aslida bu masala hozirgi kunda uzil-kesil o'z yechimini topganicha yo'q. Mazkur masala doirasida yangi tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan biri sanaladi.